

## HUNARMANDCHILIK BOZORI: IQTISODIY MOHIYATI, SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

**Muminova Gulchexra Ergashaliyevna**

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Hunarmandchilik insoniyat tarixida eng qadimgi xo‘jalik faoliyatlaridan biri bo‘lib, u nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish, balki madaniy merosni asrash va rivojlantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda esa hunarmandchilik bozori ko‘plab mamlakatlarda, xususan, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim tarmoqlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hunarmandchilik faoliyatining iqtisodiyotdagi o‘rni bir necha jihatlar bilan belgilanadi: birinchidan, u mahalliy xomashyoga asoslangan ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi; ikkinchidan, ish o‘rinlari yaratish orqali aholi bandligini ta‘minlaydi; uchinchidan, eksportbop mahsulotlar orqali mamlakat valyuta tushumlarini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, turizm va madaniy sohalar bilan bevosita bog‘liq holda, hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borayotgani bu sohaning bozor imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Hunarmandchilik — bu asosan insonning qo‘l mehnati asosida, an‘anaviy usullarda yaratiladigan, ko‘pincha badiiy va estetik qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyatidir. U inson tafakkuri, estetik qarashi va tarixiy-madaniy qadriyatlari mujassam bo‘lgan ijodiy mehnat shaklidir.


Zamonaviy talqinda esa hunarmandchilik nafaqat milliy san‘at va madaniyat mahsuli, balki iqtisodiy faoliyatning foyda keltiruvchi shakllaridan biri hisoblanadi. Jahon bo‘yicha bu soha kichik va o‘rta biznes segmentiga kirib, turizm, savdo, eksport, ta‘lim kabi boshqa sohalar bilan bevosita aloqada faoliyat yuritadi.

Hunarmandchilik faoliyati insoniyat tarixida eng qadimiy iqtisodiy faoliyat shakllaridan biri hisoblanadi. Arxeologik topilmalar orqali qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalarida hunarmandlar jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi sinfi bo‘lganini bilish mumkin.

O‘zbekistonda esa hunarmandchilik Buyuk Ipak yo‘lining eng muhim qismlaridan biri bo‘lib, qadimdan rivojlangan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon kabi shaharlarda zardo‘zlik, kulolchilik, kandakorlik, to‘quvchilik, kashtachilik keng rivoj topgan. Bu mahsulotlar faqat ichki iste‘mol uchun emas, balki chet elga ham eksport qilingan.


Tarixiy manbalarda Mir Arab madrasasi, Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi atrofida joylashgan bozorlar va ustaxonalar orqali hunarmandlar faoliyat yuritgani aytiladi. Bu davrda hunarmandlar alohida ijtimoiy qatlam sifatida jamiyatda e‘tiborga sazovor bo‘lgan.

Hunarmandchilik bozori o‘zining murakkab va ko‘p qatlamli tuzilmasi bilan ajralib turadi. Bozor ishtirokchilari quyidagilardan iborat:



### 1-rasm. Hunarmandchilik bozori ishtirokchilari

Bozor shakllanishi quyidagi asosiy omillarga bog‘liq:



### 2-rasm. Hunarmandchilik bozori shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar

Hunarmandchilik bozori iqtisodiyotning bir qancha strategik sohalarida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi:

#### a) Yangi ish o‘rinlari yaratadi

Hunarmandchilik — kapitaldan ko‘ra mehnatga tayanadigan soha. U ayniqsa qishloq joylarida aholi bandligini ta‘minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**b) Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantiradi**

Mahalliy xomashyo (jun, paxta, teri, yog‘och va b.) asosida mahsulot yaratiladi. Bu xomashyo yetishtiruvchilarni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

**c) Ichki va tashqi savdoni faollashtiradi**

Hunarmand mahsulotlar ichki bozor bilan cheklanmaydi. Turizm orqali savdo hajmi ortadi, eksport imkoniyatlari kengayadi.

**d) Milliy brendni shakllantiradi**

Har bir hunarmandchilik buyumi – millatning tarixi, didi va ruhiyatini o‘zida aks ettiruvchi san‘at namunasi. Bu esa davlat brendini mustahkamlashda muhim vosita bo‘ladi.

**Hunarmandchilik milliy iqtisodiyotdagi o‘rni quyidalilarda namayon bo‘ladi:**

- **Hunarmandchilik sohasining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) o‘rni:** O‘zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar soni 100 mingdan oshgan. Bu esa kichik biznes subyektlari orasida hunarmandchilikning ulushini ortib borayotganini ko‘rsatadi. Ushbu subyektlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar mahalliy bozorda sotilishi bilan birga, eksportga ham yo‘naltirilmoqda.

- **Eksport salohiyati:** O‘zbekistonning qo‘lda tayyorlanadigan gilamlar, ipakdan yasalgan mahsulotlar, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi va keramika buyumlari kabi an‘anaviy mahsulotlari xorijiy bozorlarda yuqori baholanmoqda. Jumladan, 2022 yilda faqatgina hunarmandchilik mahsulotlari eksporti 30 million AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgani qayd etilgan. Bu raqamlar hunarmandchilik bozorining valyuta tushumidagi ishtirokini ko‘rsatadi.

- **Ish o‘rinlari yaratishdagi roli:** Hunarmandchilik ko‘pincha oila a‘zolari ishtirokida amalga oshiriladi va kichik ishlab chiqarish korxonalarining tashkil topishiga sabab bo‘ladi. Masalan, birgina 2023 yilda "Hunarmand" uyushmasi orqali 10 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgan. Bu esa hududiy bandlik darajasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, ayniqsa qishloq joylarda.

- **Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash:** So‘nggi yillarda hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

- Imtiyozli kreditlar ajratilishi;
- Soliq va bojxona imtiyozlari berilishi;

- Hunarmandlar uchun yarmarka va ko'rgazmalarning tashkil etilishi;
- Mahalliy va xalqaro grantlar doirasida texnika va uskunalar bilan ta'minlash loyihalari.

Hunarmandchilik va turizm bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlardir. Sayyohlar ko'pincha esdalik uchun milliy mahsulotlar xarid qiladi. Ayni paytda, sayyohlarga mahsulot yaratish jarayonini namoyish qilish ham mumkin – bu esa “tajriba asosidagi turizm”ning bir ko'rinishidir. Misol uchun, kulol ustaxonasi yoki zardo'zlik ustaxonasi faoliyatini tomosha qilish orqali sayyohlar o'ziga xos taassurot oladi va mahsulot xarid qilishga moyil bo'ladi.

Hunarmandchilik bozorini rivojlantirishda bir qancha to'siqlar mavjud:

- Marketing bilimlarining yetishmasligi;
- Mahsulot dizayni va yangilik darajasining pastligi;
- Global savdo platformalariga kirish imkoniyatining cheklanganligi;
- Sertifikatlash va xalqaro standartlarga moslashishda muammolar;
- Raqobatbardoshlik darajasining sustligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun ilg'or marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur, bu esa keyingi bobda keng yoritiladi.

Hunarmandchilik bozori — bu iqtisodiyot, madaniyat va turizm chorrahasida joylashgan o'ziga xos sektor. U nafaqat moddiy daromad keltiradi, balki milliy o'zlik, tarix, meros va estetikani asrashda ham katta rol o'ynaydi. Shu bois, hunarmandchilikka yangicha, marketing nuqtayi nazaridan yondashish — XXI asrning dolzarb ehtiyojidir.

Hunarmandchilik bozori O'zbekiston iqtisodiyotining ajralmas va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishga, balki iqtisodiy o'sish, bandlik darajasini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik faoliyati orqali yaratilayotgan qo'shimcha qiymat, xususan, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, oilaviy biznesni rivojlantirish va valyuta tushumlarini oshirish orqali milliy iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, sohani yanada rivojlantirish uchun zamonaviy bozor talablari asosida mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, marketing strategiyalarini kuchaytirish va raqamli savdo platformalariga integratsiya qilish zarur. Davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, kreditlar va infratuzilma yordami bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdaqi PQ77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
2. Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. *Journal of Family Business Strategy* (2015), <http://dx.doi.org./10.1016/j.jfbs.2015.04>
3. Abdullayeva R.G. Hunarmandchilik rivojlanishining ilmiy konsepsiyalari va uning milliy-an'anaviy asoslari. *Iqtisod va moliya / Экономика и финансы* 2021, 12(148)
4. Abdullayeva R.G. Hunarmandchilik taraqqiyotining tarixiy va institusional asoslari. *Iqtisod va moliya / Экономика и финансы* 2017, 2
5. Muallif ishlanmasi